

Vohidov Shodmon Huseynovich,
tarix fanlari doktori, professor,
Panjikent shahridagi Pedagogika instituti (Tojikiston)
e-mail: pamir555@inbox.ru

BUXORODAGI MIRZO ULUG‘BEK MADRASASI KUTUBXONASI TARKIBINING SHAKLLANISHIGA DOIR (ilm va ma‘rifat maskanlari tarixidan)

Annotatsiya

Markaziy Osiyodagi kutubxonalar, kitoblar va kitobat tarixi ming yillik tarixga ega. Davlat kutubxonalari va hujjatxonalardan tashqari shaxsiy kutubxonalar hamda noyob kitoblar qo‘lyozmalari ham mavjud edi. O‘rta asrlarda barcha madrasata‘lim markazlari vaqf mulki tasarrufida tashkil etilgan. Ko‘pgina madrasalarda kutubxonalar bo‘lib, ular vaqfdorlar tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan to‘ldirilardi. Hijriy 1095-yil safar oyining 27-kuni, ya‘ni 1684-yil 14-fevralda Xoja Muqim hoji ibn Miri Xurd Buxorodagi Ulug‘bek madrasasi kutubxonasining 200 jildga yaqin kitobini vaqfga hadya qilgan. Muallif “Xoja Muqim” vaqfnomasi ma‘lumotlariga asoslanib, XVII asr oxirigacha bo‘lgan kutubxonaning kitoblari tarkibini tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, madrasa, Ulug‘bek madrasasi kutubxonasi, vakfnoma, qo‘lyozma kitob, kitobat ishi.

К ФОРМИРОВАНИЮ СОСТАВА БИБЛИОТЕКИ МЕДРЕСЕ УЛУГБЕКА В БУХАРЕ (к истории центров науки и образования)

Аннотация

История библиотек, книги и книжного дела в Средней Азии имеет тысячелетнюю историю. Кроме государственных библиотек и хранилищ существовали и личные библиотеки и коллекции книг. В средние века все медресе-учебные центры были созданы на основе вакуфных собственности. Множестве медресе имели библиотеки, фонд которых заполнялся за счет средств представленных вакфодателем. В год 1095 хиджри, в 27 го дня месяца Сафар, 1684 году 14 февраля Ходжа Муким ходжи ибн Мири Хурд отдал на вакуфную собственность около 200 томов книги библиотеки Улугбека в Бухаре. Автор на основе сведений вакфнаме Ходжа Мукима, анализировал книжный состав библиотеки к концу XVII века.

Ключевые слова: Бухара, медресе, библиотека медресе Улугбека, вакфнаме, рукописная книга, книжное дело.

TO THE FORMATION OF THE LIBRARY OF ULUGBEK MADRASA IN BUKHARA (to the history of centers of science and education)

Abstract

The history of libraries, books and books in Central Asia has a thousand-year

history. In addition to state libraries and repositories, there were personal Bible libraries and book collections. In the Middle Ages, all madrasah training centers were created on the basis of waqf possessions. Many madrasahs had libraries, the fund of which was filled at the expense of the funds presented by the vakfodator. In the year 1095 hijri, on the 27th day of the month of Safar, 1684, on February 14, Khoja Mukim Khoji ibn Miri Khurd gave about 200 volumes of the book of the Ulugbek library in Bukhara for vacuum stability. The author, based on the information of the Waqfname, Khoja Mukima, analyzed the book composition of the library by the end of the 17th century.

Key words: *Bukhara, madrasah, Ulugbek madrasah library, vakfname, manuscript book, book business.*

Kirish

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyoda kutubxonalar qadimdan mavjud bo'lgan. Kutubxonalar xalifalik poytaxti Bog'dodda, shoh va xonlar, sulton va amirlarning poytaxt va markaziy shaharlarida, masjid, madrasalar va xonaqohlar qoshida, alohida shaxslarning uylarida mavjud bo'lgan. Kitoblar ko'p hollarda merosga berilib, masjid va madrasalar foyidasiga vaqf ham qilingan, ular savdo-sotiq manbai bo'lib, ichki bozordan tashqari xorij mamlakatlarga ham sotilgan.

Buxorodagi Ulug'bek madrasasining asosiy qismini tashkil etgan kutubxona va uning tarkibidagi kitoblarni o'rganish tariximiz uchun yangi ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu esa XVII asr tarixini yoritishda qo'shimcha manba hisoblandi. a ushbu maqolada so'z yuritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan shaxsiy kutubxonalar [35, 17-39] qatorida Muhammad Porso [36, 77-99], Jo'ybor shayxlari (Jo'ybor shayxlarining muhrlari bilan kitoblarni hamda 100 dan ortiq Dahbediy shayxlarga tegishli kitoblarni Akmalxan (Kattayev) Shayx Kattaxo'ja Dahbediy o'g'li xonadonida (Samarqand sh.) da ko'rganman), Do'kchi eshon [7, 556-563; 19, 123-124; 17, 344-385], Kitob beki Jo'rabek [6, 313-314], shahzoda Mir Muhammad-Siddiq ibn amir Muzaffar Hashmat (1862-1927) [Mir Siddiq Hashmatning shaxsiy kutubxonasidagi 300 yaqin qo'lyozma kitoblar nomini Hashmatning o'zi yozib qoldirgan. Qarang: 31, 178^a-193^b], Muhammad Sharif Sadri Ziyo [26; 41, 141-173; 13; 14;], qozi Burhonuddin (1920 y. -sentabrda o'ldirilgan), V.L.Vyatkin [24, 60-91], Abdurauf Fitrat (1937-y. otilgan) [A.Q.Mo'minov ma'lumotiga qaraganda 1934-yili Abdurauf Fitratning 150 jild arab yozuvidagi qo'lyozma kitoblari O'zbekiston xalq kutubxonasiga, keyinchalik O'z FA ShI fondiga kelib tushgan. Qarang: 335, 18], Behbudiy (1919-y. o'ldirilgan), A.A.Semyonov [33, 39-56], Ravnaqiy Shahrizabziy [40, 52-56] va boshqalarni tilga olish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda obyektivlik, tarixiylik va qiyosiy tahlil metodlaridan foylanilib, kutubxonalardagi qo'lyozma kitoblar hamda vaqfnomalar tarixiy manbalar asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar

Mirzo Ulug'bek – Muhammad Tarag'ay ibn Shohrux ibn amir Temur (1394-

yili 22-mart – 25 oktabr 1449) hukmronlik davrida (1409-1449) Movarounnahrda iqtisodiy hayot bilan birga ilm-fan va madaniyatning turli sohalari rivojlangani ma'lum. Amir Temur va Temuriylar davri insoniyat madaniyati tarixining eng boy va mazmunli qatlamani tashkil qiladi. Ayni shu davrda islom madaniyati va ma'naviyatining navbatdagi uyg'onish – renessans davri bo'lib o'tgan [8, 25-198; 28, 256-264].

Mirzo Ulug'bek davri tarixi, uning siyosiy, harbiy faoliyati va ilmiy merosi oxirgi yillarda o'rganilayotganiga qaramay uning nomi va faoliyati bilan bog'liq muammo va masalalar ilmda hali ko'p uchramoqda. Shulardan biri Samarqanda, G'ijduvon va Buxorodagi Ulug'bek tomonidan bino qilgan madrasalar va ularning faolyaiyatidir. 1417-yili Ulug'bek farmoni bilan boshlangan madrasa qurib bitkaziladi va uni borib ko'rgan Abdurazzoq Samarqandiy ma'lumotiga qaraganda Ulug'bek (1419-yili 28 noyabr) barcha tolibililm va hurmatli mudaris va ashroflarga hadiyalar beradi [27, 354]. Ulug'bekning taklifi bilan uning eshiklari tabaqasida arab tilida "Ilm olish barcha musulmon erkagi va ayoli uchun farzdir" (Talabu-l-ilmi farizatun ala kulli muslimin va muslimotin) degan hadis yozilgani o'sha vaqddagi ko'pgina mutaassib ulamo va so'fiy pirlariga ma'qul kelmagan. Shunga qaramasdan mazkur madrasa Buxoroning ilmiy-adabiy va ma'naviy hayotida Ulug'bek davridan boshlab to XX asrning boshlarigacha muhim rol uynagan. Ulug'bekdan keyin boshqa temuriylar va yangi sulolalar hukmronligi davrida ham bu madrasaning moddiy va moliyaviy ahvoli, talaba va mudarrislarning maoshlari yangi vaqf mulklaridan yaxshilanib boravergan, uning binosi ta'mirlangan.

Buxorodagi Ulug'bek madrasasining binosi me'moriy yodgorlik sifatida ancha o'zgargan holda yetib kelib davlat muhofazasidir. Ulug'bek qurdirgan bu madrasada Abdullaxon II davrida katta ta'mir ishlari olib borilgan (1586). Bosh tarzida mahobatli peshtoq, ikki qanotida ikki qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtog'ida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o'tiladi. Miyonsaroy ichki gumbazi 12 qirrali, g'ishtdan to'rsimon shakl qilinib, oralariga ko'k va havo rang koshin terilgan. Hovli (26x25 m) atrofini ikki qavatli hujralar qatori va peshtoqli ikkita ayvon egallagan. Hovlining shimoli va janub tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsharang sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p. Ayvon ustunlari zarhallangan.

Hujralar ichi ganch suvoqli bo'lib, madrasa uncha katta emas (53x41,6 m), hujralari mo'jaz, o'zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos tarzda qurilgan. Madrasaning masjidi (15,5x5,5 m) va darsxona (5,5x5,5 m) gumbazli, miyonsaroyning ikki yon tomonida joylashgan. Miyonsaroyning ikkinchi qavatida kutubxona bor. Xo'ja Sa'd Jo'yboriy [U va uning faoliyati haqida qarang: 18, 7-67] (vaf. 1589-yili, 23 oktyabr) tomonidan tashqi peshtog'i va yonlaridagi hujralar ta'mir etilib (1586), peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g'arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta'mirlovchi usta Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. 1841-1842-yillari Buxoroda bo'lgan N.Xanikov Ulug'bek madrasasida 80 hujra bo'lganini va madrasa talabalari

yilida 3 ½ tillo vaqf daromadidan haq olishlarini eslab o'tgan [30, 86].

Aytilganidek, bizgacha madrasa ancha o'zgargan holda yetib kelgan. XVI–XVII asrlarda, 1950-1970-yillar va 1990-1996-yillarda ta'mirlangan.

Mazkur madrasaning asosiy qismini tashkil etgan kutubxona va uning tarkibidagi kitoblar haqida ushbu maqolada so'z yuritiladi.

Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyoda kutubxonalar qadimdan mavjud bo'lgan [Qarang: 20]. Kutubxonalar xalifalik poytaxti Bog'dodda, shoh va xonlar, sulton va amirlarning poytaxt va markaziy shaharlarida, masjid, madrasalar va xonaqohlar qoshida, alohida shaxslarning uylarida mavjud bo'lgan. Kitoblar ko'p hollarda merosga berilib, masjid va madrasalar foyidasiga vaqf ham qilingan, ular savdo-sotiq manbai bo'lib, ichki bozordan tashqari xorij mamlakatlarga ham sotilgan. Bugungi kunda bizga Samarqand va Buxorodagi Somoniylar kutubxonasi [15, 536; 23, 185 va keyingi betlari], Urganchdagi xorazmshohlar, g'aznaviylar va Temuriylar kutubxonalari [16; 9; 21, 405-506; 25; 22; 12, 11-112], shayboniylarning Buxoro [2, 325-342], Samarqand, Hirot va boshqa viloyatlar markazlarida, XVII- XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo xonliklarida mavjud bo'lgan kutubxonalar ma'lum [32, 127-139; 10, 303-320; 11, 245-262; 1; Qiyos uchun qarang: 3, 5-19; 37, 267-278; 38, 147-167; 39, 117-141; 34, 175-194]. Kutubxonalar davlat, jamoat hamda shaxsiy kutubxonalariga bo'linib, jamiyatning barcha a'zolari tomonidan nihoyatda qadrlangan. Shuning uchun ham kitob va kitobat san'ati bilan bog'liq bo'lgan barcha kasb va hunar egalari hurmatga sazovor bo'lganlari ma'lum [4; 5;].

Arxiv ma'lumotlaridan ma'lum beradiki, Ulug'bek madrasasiga turli shaxslar tomonidan nafqat ko'chmas va ko'char mulklar, naqd pul, balki kitoblar ham vaqf qilingan. Bu an'ana faqat Ulug'bek madrasasi yoki faqat Buxoro amirligida emas, balki islom olamidagi barcha davlatlarida mavjud edi. Ulug'bek madrasasi bino etilganida undagi binolaridan kutubxona uchun alohida xonalar ajratishgani o'sha vaqtdanoq kutubxonada kitoblar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Keyinchalik bu kutubxona tarkibi yangi kitoblar bilan to'ldirilgan.

114/2 raqamda saqlanayotgan O'zbekiston Milliy arxivi vaqfnoma hijriy 1095-yili, Safar oyining 27 kuni/1684-yil 14-fevral Xoja Muqim hoji ibn Miri Xurd Buxorodagi Mirzo (Ulug'bek) madrasasi kutubxonasiga (!) Buxoro shahri, Ro'd tumani, G'arag'anch nahri mavzeida joylashgan 36 tanob yerni, bu yerlardagi xonalar, mevali daraxtlari bilan vaqf qilgan. Vaqf beruvchi mutavalliga vaqf yerlaridan keladigan mablag'ni taqsimlagandan so'ng kutubxonaga qolgan puldan tafsir, hadis, fiqh, usul al-fiqh, qiroat, aqoid, arab tili va naxvu sarfiga oid kitoblarni sotib olishni shart qilgan.

Vaqfnomaga Buxoro shahrining o'sha davrdagi qozisi qozi Miri Miron o'g'li qozi Mir Nosir 9 ta muhr bosib, uni tasdiqlagan.

Hujjatda yuqorida zikri o'tgan fanlar va boshqa sohalarga oid 187 ta kitob nomi (majmualar tarkibidagi asarlardan tashqari) zikr qilib o'tilgan. Vaqfnomada kitob nomi, ba'zan muallifi, uning xati (nasx, nasta'liq, nasxga o'xshash va h.), kitob matnining satrlari soni, necha varaqdan iboratligi, kitoblarning muqovasi, rangi qayd qilib o'tilgan. Shunda ma'lum bo'ladiki, barcha qo'lyozma kitoblar jildi osh berilgan teridan (jildi saxtiyon), ba'zilar kemuxt (ishlov berilmagan xom teridan), ko'p qismi moylangan, ya'ni laklangan muqovadan (jildi rangii ravg'anij) dan, Vaziriy, ya'ni

Buxoro yaqinidagi Vaziri qishlog'ida tayyorlangan jild-muqova) bo'lib, qog'ozi naxo'di yoki novotrang bo'lgan. Kitob jildlari aksar holatda ranglari bilan kharsatilgan (sariq, yashil, ko'k, qora va h.). Kitoblarning kurosa, daftarlari aksar to'rt, olti, sakkiz, 12 varaqli qilib buklangan va sahifalangan ekan. Kartonli muqovalarni "jildi qog'azi" deb ko'rsatilgan. Bezatilgan, jadvalli, unvonlari bor va tilla suvi bilan bezatilgan qo'lyozmalar ham alohida qayd qilingan.

Diniy asarlarning ko'pchiligini Qur'on (Kalomulloh deyilgan), hadislar, siyar (islom payg'ambari tarjimai holi) va maqomot (agiografiya) janridagi asarlar, sharh, shuruh (sharhlar), izoh, hoshiya va havoshi, tarjima va tafsirlar tashkil qilgan. Kutubxona xazinasiga devonlar, Rumiyning "Masnavii ma'naviy" asarining daftarlari ham sotib olingani ma'lum bo'ladi.

Quyida ushbu vaqfnomada zikr qilingan kitoblar ro'yxati keltiriladi, ularga sharh va izohlarni hujjatni tuzgan(lar) berishgan.

№	Asar nomi	Xati	Varog'i	Satri	Kotib izoh
1	"Tafsiri Mullo Husayn"	naxs	145	25	jildi saxtiyon/osh berilgan teri. rangi qora
2	"Saloti Mas'udiy"	nasx	455	27	
3	Kalomulloh (Qur'on)	naxs xati	377	12	to'rtburchak, qora saxtiyon
4	Kalomulloh (Qur'on)	Nasxi miyona/o'rtacha nasx	300	15	qora yumshoq safyan jild
5	"Mishkotu-l- Masobih", hazrati umdat ul-ulamo, nizomu-l-atqiyoz hazrati Oxund Mullo tarjimasi bilan	o'rtacha nasx	280	13	
6	Tarjimai "Shamoili Nabaviy" bo tafsiri surai "Fotiha" Xoja Muhammad Porso	nasx	273 .	7	
7	"Tafsiri Qozi Bayzoviy", tamomi	Nasxi miyona	688	23	jildi qora teridan
8	"Sharhi Avrod"i ma'ruf ba "Kibrul-ibod"		425	19	rangli qog'oz
9	"Sharhi Viqoya"-i Mullo Fashiddin	naxs	376	23	
10	Sharhi Viqoya		533	21	
11	Mishkotil Masobih	nasx	536	19	qora jild
12	Hidoya daftarlari		316	21	sariq jildlari, rangli qog'ozda
13	"Tafsiri Qoziy" az surai "Fotiha" to surai "An'om"	nasx	190	21	
14	"Miftohu-l-jinon"	nasx	224	23	Oshlangan teri (saxtiyon)
15	"Azkor"i hazrati Imom	nasx	280	8	Iuqovasi vaziriy

	Navaviy				
16	“Hidoya” daftarlari	nasx	376	23	Yog‘langan yashilrang qog‘ozda
17	“Hoshiyai Xoja Abulqosim bar “Tafsiri Qozi “Fotiha”	nasx	51	23	Yog‘langan Jild (lak surtgan)
18	“Hoshiya Mullo Isomuddin bar “Tafsiri Qoziy”	nasx	68	19	rangli yog‘langan jild
19	Sharhi Mullo Abdulaliy bar Sadri bar “Muxtasari viqoya”	nasx	448	25s	
20	“Mashariq ul –anvor”	nasx	21	15	to‘rtburchakli muqova/turtburchak muqova
21	“Vasilai Saodat”	nasx	345v	22	Qora jild
22	“Masnaviy mavlono Jaloliddini Rumi”	nasx	288	25, 4 misradan iborat	Qora jild
23	Daftari avvali “Hidoya”		319	21	rangli va sariq alacha qog‘ozi
24	“Shavarik ul-asror” az sharh “Mashariq ul- anvor”	nasx	541	28s	
24	Muntaxabi “vasilat us-Saodat”	nasx	256	17	to‘rtburchakli muqova
25	Hoshiya Mullo Sodiq bar “Tafsiri Qoziy bar surai “Yosin”	nasx	132	1	moyli kog‘ozdan qilingan jild
26	“Muxtasar ul-viqoya”	nasx	291	7	to‘rtburchakli muqova
27	“Hisni Hissin”	nasx	88	11	jildi qora
28	Majmuai Mustamliy bar shuruhi “fiqhi Kaydoniy” va “Sharhi navadu nuh nom va “Avrodi fathiya”	nasx			Sariqrangli kog‘oz va to‘rtburchakli muqova
29	“Sharhi Mullo Hanafiy bar “Hisn Hissin”	nasx	154	19	qora jild
30	“Sharhi “Aqoid”-i Mullo Sa’duddin”	nasx	129	11	to‘rtburchakli muqova
31	“Hoshiyai Xayoliy” bar sharhi aqoidi mazkur (“Sharhi “Aqoid”-i Mullo Sa’duddin)	nasx	96	11	bir jildda ikki asar, yog‘li qog‘oz
32	“Tuhfai Salovoti Mullo Muin	nasta’liq	87	23	qora jild
33	Sharhi “Fiqhi Kaydoniy”i Mullo Muhammad Amin Zohid	nasx	50	17	
34	“Tahqiqoti Xoja Muhammad Porso”	nasx	220	25	qora jild
35	“Tuhfa va Subha”	nasta’liq	72	23, 3,4 misra	qora jild

36	Maqomoti Hazrati xoja Madariy musamo bi ismi "Anis at-tolibiyin"		285	17	qora jild
37	Sharhi Hazrati Mullo bar "Kofiya"	nasx			To'rtburchakli muqova, Yashil rangli moyli kog'oz
38	Sharhi Mullo Jomiy bar "Kofiya"	nasx	222	23	
39	Devoni avvali Hazrati Mavlaviy Jomiy	nasta'iq	313	17 , 2 misradan	Yog'li qog'oz (laklangan)
40	"Ashiat ul-Lamaot"i hazrati Mavlaviy Jomi	nasta'liq	134	15s	Yog'li qog'oz (laklangan)
41	"Hoshiyai Mullo Asomuddin bar Sharhi Mullo"	nasx	133	23	qora jild
42	Majmuai mushtamala bar rasoili Sufiya	nasta'liq	240v	17 s	qora jild
43	Majmuai digar mushtamala bar rasoili Sufiya		133	15	qora jild
45	"Rashahot (ayni-l-hayot)"	nasx	248	25	qora jild
46	Matni "Avrod"	nasx	48	19	
47	"Hoshiya Hofizi Toshkandiy bar "Sharhi Mullo"	nasx	133	15	qora jild
48	"Shotibiy"	nasx	152	10	Jigarang teri, to'rtburchakli
49	"Mantiq ut-Tayr"	nasta'liq	99	17, 3 misra	qora jild
50	"Mutavval"	nasx			Qizil teri
51	"Hoshiyai mullo Rovih Xattomi bar "Mutavval" va Muxtasari "Talxis"	nasx	160	19	Ko'k rangli jild
52	"Risolai Yusufi bar tibb"	naxs taliq			qora jild
53	Muxtasari "Talxis"	nasx	152	21	qora jild
54	"Hoshiyai Mir Sayid Sharif bar "Mutavval"	nasta'liq	115	21	qora jild
55	"Muhazzib"	nasx	161	23	qora jild
56	"Hidoya", "Nahv" va (lug'ati)"Suroh"	Nasxi miyona			qora jild
57	"Sharhi Mullo Zanjoni bar Mullo Sa'duddin va Hoshiyai Ohund Mullo Mir bar sharhi mazkur (Oxund Mullo)"	nasx			to'rtburchakli muqova, ko'krangli qog'oz
58	"Muqaddimai Shayx Xayrulloh bar "Lu'ab"	nasx.			qora jild
59	"Hoshiyai Xayoliy bar. "Sharhi Aqsid"		218	23	to'rtburchakli muqova, qora jild

60	“Hoshiyai “Sharhi Abvob”i hazrati Mir Sadruddin		30	21	to‘rtburchakli muqova, qora jild
61	Sharhi “Javohir ul-Islom”		48	15	
62	Devoni solisi hazrati Mavlaviy(Jomiy)	nasta’liq	150	11	Yayayayashil qog‘oz
63	Sharhi “Fiqhi-l-Akbar”		89	25	to‘rtburchakli muqova, qora jild
64	“Siyari (sharifi)” Mullo Muin		730	25s	qora jild
65	Kalomullohi tomom	nasx	30	15	

Ikkinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog‘i	Satri	Izoh
1.	Kalomulloh	nasx	437	12	qora jild
2.	Daftari avvvali “Tafsiri Mullo Husayn”	nasta’liq	450	19	Qat’i munsif (yarim jildli), qora jild
3.	Daftari sonii “tafsiri Mullo Husayn”	nasta’liq	487	21	qora jild
4.	Daftarayni “Kofiya”	nasta’liq	316	29	Qizil teri
5.	“Talvih”-i tamom	nasta’liq	314	23	Qat’i munsif, qora jild
6.	“Mutavval”-i tamom	nasta’liq	279	25	qora jild
7.	“Sharhi hazrati Mullo bar “Kofiya”	nasta’liq	235	17	Yog‘li yashilrangli
8.	“Hayrutu-l-fuqaho”	nasta’liq	56	27	
9.	“Fatovi”-i kubro	nasta’liq	75	25	2 jildi bir jildda. Nuxotrang kog‘ozda.
10.	Majmua: “ Imom Navaviy”, “Duru-l-Multanit”, “Shamoili Nabaviy”, “Hisni Hissin”, “Arbain hadis”, “Mullo Buxori, Mullo Ibni Moja, Mullo Dorami va Mullo ... bar Mullo”, “Sharhi “Arbain”-i Shayx ul-islom, risolai musammo bar “Azdiy” mashhur ba “Sharhi Mullo Tosh Buxori bar “Shamoili Nabaviy”, “Miftohi Hisni hissini”, “Sharhi Mullo Tosh Buxoriy ba zubda sharhuhot bar sodir al-usuli hadis”. “Risolai Mullozoda”, “Ashhari dar usul”, “Risolai Mir dar usul”, Matni “Tuhfa dar usul”.				
11.	“Kimiyo saodat”	nasta’liq	387	27	qat’i munsif,

					kog'ozli nuxotrang jild
12.	“Hoshiyai Hoji Abulqosim bir tafsiri qozi Bayzoviy”		290	25	qora jild
13.	“Hoshiyai Mullo Asomuddin bar sharhi Mullo”		127		qora jild
14.	Daftari avvali “Qozi Bayzoviy”		354	21, 23	qat'i munsif, qora jild
15.	“Mishkot”	nasxomez			qora jild
16.	“Hoshiyai Sayyid bar “Mishkot”				qora jild
17.	Daftari duvvumi “Qozi Bayzoviy”	nasxomez	384	21, 23	qat'i munsif, qora jild
18.	“Hoshiyai Mullo Sodiq bar Sharhi Mullo (Jomi)”	nasta'liq	200	23	qora jild
19.	“Mishkot”	nasta'liq	589	19	qora jild
20.	“Mishkot”	nasx	395	21	qora jild
21.	“Hoshiya Sayyid bar Mishkot”		408	21	Sariq jild
22.	“Hoshiyai Mullo Asomiddin bir “Tafsiri “qozi Bayzoviy”		469	21	qora jild
23.	Sharhi “Kofiya”-i Mullo Asomiddin maa sharhi “Kofiya”-i qozi bar Husayn”		325	29	vaziriy, qizil teri
24.	Sharhi Aqoidi Mullo Sa'diddin bo hoshiyai Xayoli	nasta'liq	20		To'rtburchakli muqova, qora jild
25.	“Sharhi “Aqoid”-i Mullo Sa'diddin bo hoshiyai Xayoliy”	nasta'liq	20		To'rtburchakli muqova, qora jild
26.	“Arbain”, “Hisni hissini”	nasx			qora jild
27.	“Shamoili nabaviy”	nasx			ikki varoqli
28.	“Mishkot”	nasta'liq	60		Qat'i munsif, qora jildi kuhna
29.	“Sharhi Mullo”	nasta'liq	60		To'rtburchakli muqova, Qizil teri
30.	“Hoshiyai Mullo Ismatulloh ba sharhi Mullo”				laklangan alacha jild
31.	“Sharhi “Aqoid”-i Mullo Sa'diddin ba hoshiyai Xayoliy”	nasta'liq	20		To'rtburchakli muqova, qora jild
32.	“Sharhi “Aqoid”-i Mullo Sa'diddin ba hoshiyai Xayoliy”	nasta'liq	20		To'rtburchakli muqova, yashil laklangan teridan
33.	“Hoshiyai Qora Kamol ba Hoshiyai Xayoliy”				Laklangan qizil alachcharangli
34.	Hoshiyai Qora Kamol				Laklangan yashilrangli jild
35.	“Hoshiyai Kastali va (Hoshiyai) Mullo Ahmad”	nasta'liq			To'rtburchakli muqova, qora jild

36.	“Hoshiyai Chalabiy”, “Sharhi “Aqoid”-i Mullo Sa’iddin”	nasta’liq			To‘rtburchakli muqova, eski laklangan qizil jild
-----	--------------------------------------------------------	-----------	--	--	--------------------------------------------------

Uchinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog‘i	Satri	Izoh
1.	“Hidoya”	Nasxga o‘xshash	438	19	Qat’i munsif, qora jild
2.	“Muxtasari “Viqoya”	nasx	156	9	vaziriy
3.	“Sharhi viqoya”	nasta’liq	257	21	vaziriy
4.	“Hidoya”, daftari avval		337	20	vaziriy
5.	“Shariati salavot”	nasx	118	27	vaziriy
6.	“Sharhi “Viqoya”	nasx	269	19	vaziriy, yashil
7.	“Shariatu-l-islom” va ba’ze rasoi		214		Vaziriy, yashil
8.	“Sharhi Mullo Faxriddin bar “Muxtasari “Viqoya”	nasx	264	21	qora jild
9.	“Sharhi Mulo Abulmakorim bar “Muxtasari “Viqoya”	nasx	506	20	qora jild
10.	Daftari avvali “Xulosa”	nasxomez	396	25	qora jild
11.	Daftari sonii “Kifoya”	nasx	314	29	qora jild
12.	Daftari avvali “Kifoya”	nasx	356	29	qora jild

To‘rtinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog‘i	Satri	Izoh
1.	“Mutavval”	nasta’liq	252	21	To‘rtburchakli muqova, qora jild
2.	“Hoshiyai Mir bar “Mutavval”	nasta’liq	135	21	To‘rtburchakli muqova
3.	Muxtasari “Talxis”	nasta’liq	177	21	To‘rtburchakli muqova
4.	Matni “Talxis”	nasx	119	20	Sariq laklangan
5.	“Mutavval”	nasx	271	23	qora jild
6.	“Hoshiyai Chalabi bar “Mutavval”	nasx	278	25	qora jild
7.	“Mutavval”	nasta’liq	239	21	qora jild
8.	“Atul”	nasx	330	25	
9.	“Hoshiya Xoja Abulqosim bar “Mutavval”	nasta’liq	204	23	qora jild
10.	“Hoshiyai Chalabi bar “Mutavval”	nasta’liq	226	25	qora jild, qat’i munsif
11.	“Mutavval”	nasta’liq	192	23	alacharang
12.	Hoshiya Mullo Qutbiddin Ahmad bar “Mutavval”		158	21	qora jild

Beshinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog'i	Satri	Izoh
1.	Majmua				To'rtburchakli muqova, qora jild
2.	Majmua bar du risola "Tafsiri oyatal-kursi" va "fiqhi Kaydoniy", "Sharhi "Fiqhi Kaydoniy", Mullo Muhammad Amin va sharhi "Qasidai "Burda", Mullo Asomiddin va g'.		189		Osmonrang kog'oz
3.	"Risolai a'dod"	nasx	60	15	To'rtburchakli muqova, no'xotrang kog'oz
4.	Majmua		188		Moviyrang kog'oz
5.	Sharhi Mullozodai Isfahoniy bar "Qasidai "burda"	nasxomez	66	23	Qora jild
6.	"Silsilutu-z-zahab"				Qat'i munsifi vaziri, qora jild

Oltinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog'i	Satri	Izoh
1.	"Hoshiyai Chalabiy bar sharhi "Aqoid"	nasx	233	21	Qog'azi rangi ravg'ani surx, to'rtburchakli muqova
2.	"Aqoid"-i Mullo Ahmad	nasta'liq	137	15	To'rtburchakli muqova, qora jild
3.	Kashfi...	nasx	137	15	To'rtburchakli muqova, qora jild
4.	"Sharhi Aqoid maa Xayoliy (Sharhi Xayoliy)"	nasta'liq	96	19, (23)	To'rtburchakli muqova
5.	"Hoshiyai Mullo Qosim bar Xayoliy"	nasta'liq			To'rtburchakli muqova, qora jild
6.	"Hoshiyai Mullo Qosim bar Xayoliy"	nasta'liq			To'rtburchakli muqova, qora jild
7.	"Hoshiyai Mullo Qosim bar Xayoliy"	nasta'liq			To'rtburchakli muqova, qora jild

Yettinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog'i	Satri	Izoh
1.	“Vuqufi Sajovandiy”	nasx	145	13	To‘rtburchakli muqova, qora jild
2.	Majmuai mushtamila bar “Mufradai Imom Nofe’, Imom Abu Umar, Ibni Omir, Imom Hamza. “Kisoiy bar risolai Hofiz”		224		Dar yak mujallad, qoazi ranga, to‘rtburchakli muqova
3.	“Sharhi Mullo Imod bar “Shotabiy”		215	27	Qat’i munsif, qora jild

Sakkizinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog'i	Satri	Izoh
1.	“Yusuf va Zulayxo”	nasta’liq	131	15	Qat’i munsifi vaziri, qora jild
2.	Devoni Xoja Hofiz	nasta’liq	227	15	Qora jild, qat’i munsifi vaziri.
3.	“Masnaviy (ma’naviy)”	nasta’liq	391	24	qora jild Qat’i munsifi,
4.	“Yusuf va Zulayxo”	nasta’liq	142	15	To‘rtburchakli muqova, ravg‘anii ahmar
5.	Devoni Xoja Hofiz	nasta’liq			Qat’i munsifi vaziri

To‘qizinchi yozuv

№	Asar nomi	Xati	Varog'i	Satri	Izoh
1.	Daftari sonii “Ravzatu-l-ahbob”				
2.	“Nafahotu-l-uns”		372	13, 15	Qat’i munsif
3.	Kalomulloh	nasx		15	Jadval, qora jild
4.	Kalomuloh	nasx		15	Qora jild, murabba’
5.	Kalomulloh	nasx		15	Qora jild, murabba’
6.	Kalomulloh	nasx		15	Kemuxt, murabba’, Halli tillo
7.	“Nafahotu-l-uns”			21	Jildi surxi muzayyan
8.	Majmuai farhang bo “Xulosatu-l-mustaxlis”			25 (-25)	Jildi qog‘azi naxo‘di

9.	Daftari sonii "Hidoya"	nasx	438	19	Qora jild, qat'i munsif
10.	"Siyari Mullo Muin". Chahor rukn	nasta'liq		27	Qat'i tom, qora jild
11.	"Siyari Mullo Muin". Shash rukn tamom	nasta'liq		29	Qat'i tom, qora jild
12.	"Talvih"	nasta'liq	208	21	Qora jild, qat'i shash varaqa
13.	"Sharhi "Muxtasari Viqoya"-i Mullo Faxriddin"	nasxomez		23	Qora jild, qat'i munsif
14.	"Tavzih"	nasta'liq		25	jigarrang saxtiyon teri
15.	"Sharhi "Avrod"	nasx		27	Qora jild, To'rtburchakli muqova
16.	Daftari sonii "Hidoya"			18	Qora jild, To'rtburchakli muqova
17.	Daftari avvali "Silsilatu-z-zahab"	nasta'liq		13	Yog'li qog'oz (laklangan) yashil, to'rtburchakli muqova
18.	"Tafsiri Qozi Imom"	nasx		225	Qizil teri, To'rtburchakli muqova
19.	"Muxtasari Mirzo"	nasta'liq		7	Qat'i munsif
20.	"Tuhfa va subha"	nasta'liq		15	Sariq rangli laklangan muqova, qat'i 12 varaqa
21.	"Fusuli Imodiy"	nasx		25	Qora jild, qat'i munsif
22.	"Hoshiyai tafsiri Qozi Xoja Abulqosim" min avvali ila sura "Yunus" a.s. maa sura "Sod"	Nasta'liq (nasx)		25	Yashil rangli laklangan, qat'i munsif
23.	"Shavohid an-nubuvvat"	nasta'liq			Bezatilgan yashil rangli mmmuqova, 4 lavhi rangli jadvallari bor, qat'i munsif
24.	"Mutavval"-i tom	nasta'liq		25	Qizilrang saxtiyon teri
25.	"Sharhu-sh-sharh bar sharhi Qozi (bar) usul"	nasta'liq		25	Yashil rangli moyli muqova, qat'i munsif
26.	Daftari sonii "Hidoya"	nasta'liq		21	Yashil rangli moyli muqova
27.	"Sharhi Mullo"	nasta'liq		21	Qora jild, munsifi vaziri

28.	Tarjimai “Ahodis”	nasta’liq		21	Moysochilgan (ravg’anafshon) yashil, to’rtburchakli muqova
29.	Majmui “Izoh va Hoshiyai Mir Sayyid Sharif bar “Mabsut”, “Sharhi risolai “Vasiiya” va “sharhi “Avrod”				
30.	“Sharhi “Viqoya”	nasx		23	moyrang, qat’i munsif
31.	Daftari sonii “Hidoya”	nasx		21	Qora jild, qat’i munsif
32.	“Hoshiyai Chalabi bar “Tavzih”	nasta’liq		27	Qora jild, olti varaqli qat’i
33.	Sharhi “Avrod”	nasx		21	Qora jild, qat’i munsif
34.	“Muxtasari Mirzo”	nasx		9	Qora jild
35.	“G’aybnoma”, “Suhbatnoma”	nasta’liq		25	Qat’i munsif, Teshilgan, shikofta lavh va murassa’ jadvalli
36.	“Zahrovin” az tafsir	nasxomez			qat’i munsif
37.	“Muxtasar ul-viqoya”				
38.	“Tuhfatu-s-salavot”				
39.	“Barhamat al-arvoh”				
40.	“Azkor”-i imom Navaviy				
41.	“Hoshiyai Mullo Sodiq bar sharhi Mullo”			21	To’rtburchakli muqova, qizil bir jadvali bor
42.	“Tafsiri qozi Bayzoviy bar yak porai “Asr”		28		
43.	Devoni Xoja Hofiz	nasta’liq		15	olti varaqlik kurosasi
44.	“Ibroz al-maoli fi bob-i-l-g’arob”. Sharhi “Shotabi”-i forsiy				
45.	“Ishorot”				

Xulosa

Umuman olganda, Buxoro hukmdorlari saroyida an’anaga ko’ra davlat xazinasi bilan birga devon, davlat hujjatlari saqlanadigan joylar va kutubxonalar mavjud bo’lgan. Shuningdek, yuqori mansabli amaldorlarga tegishli bo’lgan devon bilan birga kutubxona ham bo’lgan. Poytaxt Buxoro shahrida, viloyat (beklik) markazlarida jamoa, madrasa va masjidlar hamda qorixonalar qoshida ham kutubxonalar bo’lgan. Ushbu kutubxonalar davlatning madaniy, ilmiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan muassasalardan hisoblangan. Buxoroda davlat va jamoat kutubxonalari bilan bir qatorda shaxsiy kutubxonalar ham keng faoliyat ko’rsatishgan. Shaxsiy kutubxonalar nodir kitoblarga boy bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов А., Зохийдий А. Закий Валидий Тугоннинг Туркистонга илмий сафари. – Тошкент: Фан, 1997.
2. Акимушкин О. Ф. Библиотека Шибанидов в Бухаре XVI века / *Bamberger Zentralasienstudien. Konferenzakten ESCAS IV.* – Bamberg, 1991. – P. 325-342.
3. Акимушкин О. Ф. О придворной китабхâne Сефевиды Тахмаспа I в Табризе // *Средневековый Восток: история, культура, источниковедение.* – Москва, 1980. – P. 5-19.
4. Ахунджанов Е.А. Историко-типологическое исследование истории книги и книжного дела в Туркестане: древность. Средние века. Дисс... докт. ист. наук. – Ташкент: ИВ АН РУз., 1998.
5. Ахунджанов Е.А. Очерки по истории книги и книжного дела в Средней Азии. Древность. Средние века. – Ташкент, 1993.
6. Бартольд В. В. Собрание рукописей Джурабека. / *Сочинения.* Т. VIII. – Москва: Наука, 1973. – С. 313-314.
7. Бартольд В. В. Туркестанская Государственная библиотека и местная мусульманская печать // *Сочинения.* Т. IX. – Москва, 1973. – С. 556-563.
8. Бартольд В.В. Улугбек и его время / *Сочинение, Том II, часть 2.* – Москва: Наука, 1964. – С 25-198.
9. Библиотека Тимура // *Туркестанские ведомости, 1873. №44.*
10. Валидов А. Восточные рукописи в Ферганской области // *Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества, 22 (1913-14), 1915.* – С, 303-20.
11. Валидов А. О собраниях рукописей в Бухарском ханстве. Отчёт о командировке // *Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества, 23 (1915), 1916.* – С. 245-262.
12. Востоковедные фонды крупнейших библиотек Советского Союза. Статьи и сообщения / Составитель Тверитинов А. С. – Москва, 1963. – С. 11-112.
13. Вохидов Ш., Чориев З. Садр-и Зия и его библиотека. Из истории книги и книжной культуры в Бухаре начала XX века. Книги, библиотеки, каталоги. Т. I. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2007. – 352 с.
14. Вохидов Ш. Зиёи Садри Бухори ва феҳрасти китобхонаи ӯ. – Душанбе: Маориф, 2021. – 560 с.
15. Гафуров Б. Г. Точикон, таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна. Китоби якум. – Душанбе: Ирфон. 1983. – С. 536.
16. Древние рукописи в Самарканде. Библиотека Тамерлана // *Туркестанские ведомости, 1870. №3.*
17. Зиёдов Ш., Муминов А. Библиотека Дукчи Ишана. В «Манокиб-и Дукчи Ишан» (Аноним жия Дукчи Ишана–предводителя Андижанского восстания 1898 г.) Перевод с турки, введение и комментарии Б. М. Бабаджанова. – Тошкент-Берн-Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 344-385.
18. Иванов П.П. Хозяйство джуйбарских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии в ХСІ-ХVІІ вв. – Москва: Наука, 1954. –

C.7-67.

19. Каль Ю. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной Библиотеки. Ташкент, 1889 // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. 1891. – С. 123-124.
20. Qosimova O. O‘zbekistonda kutubxonachilik tarixi. – Toshkent. 1992.
21. Кун А. Л. Предание о библиотеке Тамерлана // Материалы для статистики Туркестанского края. – Спб., 1874. Вып. III. – С. 405-506.
22. Логофет Д. Н. Тамерлановская библиотека // Туркестанские ведомости, 1911. №24.
23. Нигматов Н. Н. Государство саманидов. – Душанбе, 1981. – С. 185 ва кейингилари.
24. Перечень восточных рукописей В. Л. Вяткина в Государственной Публичной библиотеке УзССР // Труды Государственной Публичной библиотеки УзССР. Том 1. – Ташкент, 1935. – С. 60-91.
25. Поиски библиотеки Тимура Мэкензи Уоллосом // Туркестанские ведомости, 1889, №28.
26. Садр - и Зия. Асоми-йи кутубхона-йи хусуси-йи кози-йи калон Садр-и Зиё // Қўлэзма. Ўз Фа ШИ. – №-2460, вар. 4^а.
27. Samarqandiy Abdurazzoq. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. II jild. Birinchi qism. 1405-1429-yilar voqealari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 354.
28. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati,, 1996. – Bibliografiya – B. 256-264.
29. Fitrat A. Tanlangan asarlar. II jild.– Toshkent: Mumtoz so‘z, 2005. – B.238-240.
30. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – Москва, 1843. – С. 86.
31. Ҳашмат. Дафтари мусаввада // Қўлэзма. Ўз Фа ШИ. – № 2693. – вар. 178^а-193^б.
32. Akimushkin O. F., Ivanov A. A. Une école méconnue: Boxârâ au XVII^e siècle. Notes sur les calligraphes et les peintures de la bibliothèque des Ashtarxânides d’après Mohammad Amin Boxâri / Art et société dans le monde iranien. – Paris, 1982. – P. 127-139.
33. Dodkhudoeva Larisa et Lola. Manuskrits orientaux du Tadjikistan: la collection Semenov // Cahiers d’Asie Centrale, 1999. n°7. – P. 39-56.
34. Erkinov A. Vahidov Sh. Une source méconnue pour l’étude de la production de livres à la cour de Muhammad Rahim Khan II (Khiva, fin. XIX^es.) // Cahiers d’Asie Centrale, 1999. n°7. – P. 175-194.
35. Muminov A. Fonds nationaux et collections privées de manuscrits en écriture arabe de l’Ouzbékistan // Cahiers d’Asie Centrale, 1999. n°7. – P. 17-39.
36. Muminov A., Ziyadov Sh. L’horizon intellektuel d’un érudit du X^e siècle: nouvelles découvertes sur la bibliothèque de Muhammad Parsa // Cahiers d’Asie Centrale, 1999. n°7. P. 77-99.
37. Porter Y. Farhad le peintre. A propos des ateliers de peinture de Boukhara à l’époque de ‘Abd al-‘Aziz Khan (1645-1680) // Cahiers l’Asie centrale, 1997. n° 3-4. – P. 267-278.

38. Porter Y. Le kitâbkhâna de 'Abd al-'Aziz Khân (1645-1680) et le mécénat de la peinture à Boukhara // Cahiers d'Asie Centrale, 1999. n°7. – P. 117-141.
39. Porter Y. Remarques sur la peinture de Boukhara au XVI^e siècle.) // Cahiers l'Asie centrale, 1998. n°5-6. – P. 147-167.
40. Vahidov Sh. Les particularies paleographiques et cidicologiques des fonds particuliers de Rawnaqi et Faqiri (Shahrisabz, Ouzbekistan) //Manuckripta Orintalia. -St Peterdurg, 2003. №3-4. – P. 52-56.
41. Vahidov Sh., Erkinov A. Le fihrist (catalogue) de la bibliotheque de Sadr-i Ziya: une image de la vie intellectuelle dans le Mavarannahr (fin XIX^e – deb. XX^e s. In: A. Muminov, F. Richard et M. Szuppe (éds.), Patrimoine manuscrit et vie intellectuelle de l'Asie centrale islamique. [*Cahiers d'Asie Centrale* 7], IFEAC - Édisud, Tachkent - Aix-en-Provence, 1999. – P. 141-173.